

**XALQ OG‘ZAKI IJODI MATNLARIDA TOPONIMLARNING  
FUNKSIONAL- KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARINING AKS ETISHI  
(Qashqadaryo viloyati materiallari asosida)**

**Begimov Odil To‘xtamishovich**

Qarshi davlat texnika universiteti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası professori,

filologiya fanlari doktori

[begimovodil@mail.ru](mailto:begimovodil@mail.ru)

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodi matnlarida aks etgan toponimlarning funksional-kommunikativ xususiyatlari Qashqadaryo viloyati materiallari asosida tahlil qilinadi. Xususan, xalq og‘zaki ijodi matnlari toponimlari semantikasida uchraydigan nominativ, deyktik, informativ, etnologik, mnemonik va orientatsion funksiyalari yoritiladi. Shuningdek, toponimlar kelib chiqishi haqidagi izohlarning farqli jihatlari, ularning semantik yuklamasi hamda etnomadaniy axborotni uzatishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Tahlillar Qashqadaryo viloyati hududida to‘plangan xalq rivoyatlari asosida olib borilgan bo‘lib, toponimlarning xalq xotirasi va tarixiy ongini saqlashdagi ahamiyati ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *toponim, toponimika, nominativ funksiya, deyktik funksiya, informativ funksiya, etnologik funksiya, mnemonik funksiya, orientatsiya, rivoyat.*

**АННОТАЦИЯ**

*В данной статье на материале Кашкадарьинской области анализируются функционально-коммуникативные особенности топонимов, отражённых в текстах устного народного творчества. В частности, рассматриваются номинативная, дейктическая, информативная, этнологическая, мнемоническая и ориентационная функции, проявляющиеся в семантике топонимов народных текстов. Также выявляются различия в интерпретациях происхождения топонимов, их семантическая нагрузка и роль в передаче этнокультурной информации. Анализ проведён на основе народных преданий, собранных на территории Кашкадарьинской области, и раскрывает значение топонимов в сохранении народной памяти и исторического сознания.*

**Ключевые слова:** *топоним, фольклор, топонимика, номинативная функция, дейктическая функция, информативная функция, этнологическая функция, мнемоническая функция, ориентирующая функция, предание.*

## ABSTRACT

*This article analyzes the functional and communicative features of toponyms reflected in folklore texts based on materials from the Kashkadarya region. In particular, it examines the nominative, deictic, informative, ethnological, mnemonic, and orientational functions found in the semantics of toponyms in oral folk texts. It also highlights differences in interpretations of the origins of toponyms, their semantic load, and their role in transmitting ethnocultural information. The analysis is based on folk legends collected in the Kashkadarya region and reveals the importance of toponyms in preserving collective memory and historical consciousness.*

**Keywords:** *toponym, folklore, toponymy, nominative function, deictic function, informative function, ethnological function, mnemonic function, orientation, folk narrative.*

## KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda onomastika, xususan, toponimika alohida ilmiy yoʻnalish sifatida jadal rivojlanib bormoqda. Geografik nomlar — toponimlar — nafaqat til birliklari sifatida, balki muayyan xalqning tarixiy xotirasi, etnomadaniy qadriyatlarini va ijtimoiy tajribasini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida ham eʼtirof etiladi. Ayniqsa, xalq ogʻzaki ijodi matnlarida qoʻllanilgan toponimlar oʻzining semantik koʻpqatlamliligi va funksional rang-barangligi bilan ajralib turadi.

Xalq ogʻzaki ijodida uchraydigan toponimlar umumtil toponimlariga nisbatan kengroq maʼno doirasiga ega boʻlib, ular nafaqat obyektning nomlaydi, balki xalq ongida shakllangan mifologik, tarixiy va madaniy tasavvurlarni ham oʻzida mujassam etadi. Shu jihatdan, folklor matnlarida toponimlarning funksional-kommunikativ xususiyatlarini oʻrganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Mazkur maqolaning maqsadi — mahalliy aholi ogʻzaki nutqida uchraydigan toponimlarning asosiy funksiyalarini aniqlash, ularning kommunikativ imkoniyatlarini tahlil qilish hamda umumtil toponimlaridan farqli jihatlarini ochib berishdan iborat.

## METODLAR

Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy tilshunoslik, folklorshunoslik va etnolingvistika yoʻnalishlaridagi nazariy qarashlar tashkil etadi. Xususan, toponimlarni funksional jihatdan oʻrganishga doir ilmiy yondashuvlar hamda folklor matnini kompleks tahlil qilish tamoyillari asos qilib olindi.

Tadqiqot jarayonida Qashqadaryo viloyati hududida yashovchi aholi orasida tarqalgan turli janrdagi xalq rivoyatlari (toponimik, tarixiy, geneologik, etiologik va mifologik rivoyatlar) material sifatida tanlandi.

Maqolada toponimlarning shakli, mazmuni va qo'llanish xususiyatlarini izohlashda tavsifiy metod; toponimlarning ma'no qatlamlari va funksional yuklamasini aniqlashda semantik tahlil metodi; toponimlarning folklor matni tarkibidagi o'rni va vazifasini ochib berishda kontekstual tahlil metodi; folklor toponimlari bilan umumtil toponimlarini solishtirishda qiyosiy metod; toponimlar orqali ifodalangan etnomadaniy ma'lumotlarni talqin etishda qo'llanildi etnolingvistik yondashuv metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar uyg'unligi toponimlarning ko'p funksiyali tabiatini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini berdi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ma'lumki, til tizimidagi toponim bilan folklor matnidagi toponim ko'pincha aynan bir xil mazmunga ega bo'lavermaydi. Folklor asarida muayyan toponimning mazmuni, uning kelib chiqish sabablari va talqini hudud tarixini aks ettiradi, ammo bu aks ettirish o'ziga xos bo'lib, folklor ongining prizmasi orqali qayta ishlangan holda namoyon bo'ladi hamda og'zaki an'ana xususiyatlarini hisobga oladi. Shu sababli folklordagi toponim mazmuni bilan umumtil toponimi mazmuni har doim ham mos kelavermaydi.

Bundan tashqari, folklor matnida so'z kengroq semantik diapazonga ega bo'lib, muayyan milliy-madaniy konnotatsiyalarni ham o'zida mujassam etadi. Shu bois folklordagi atoqli ot, jumladan toponim, kundalik nutqdagiga nisbatan ko'proq semantik yuklama bilan tavsiflanadi. Folklor toponimlarining funksiyalari ham umumtil toponimlariga qaraganda ancha rang-barangdir.

Masalan, toponimik rivoyatlar tuzilmasida toponim matnning markaziy yadrosini tashkil etadi. Folklorda o'z aksini topgan toponimlar ikki tomonlama yuklamaga ega: bir tomondan, ular o'z mohiyatiga ko'ra etnomadaniy ahamiyatga ega ma'lumotlarni saqlovchi va uzatuvchi vosita bo'lsa, ikkinchi tomondan, folklor matni tarkibida ular qo'shimcha vazifani bajaradi. Toponim nafaqat etnik jihatdan muhim axborotni yetkazishi, balki narrativ tuzilishga moslashib, xalq tafakkuri xususiyatlari va u amal qilayotgan janr qonuniyatlariga bo'ysunishi lozim.

Folklor matnida toponimlarning bunday mas'uliyatli o'rni ularning ko'plab funksiyalarni bajarishiga sabab bo'ladi. Shu munosabat bilan, o'zbek folklor nasrida uchraydigan geografik nomlar misolida folklor toponimlariga xos asosiy funksiyalarni aniqlash hamda ularning umumtil toponimlaridan farqli ravishda qanday ishlash xususiyatlarini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Qadim zamonlardan beri O‘zbekiston hududida yashagan turkiy xalqlar sekin-asta o‘troq hayot tarziga o‘ta boshlagan. Ularning O‘zbekiston, xususan, hozirgi Qashqadaryo viloyati hududida doimiy yashash manzillari – qishloqlar va ovullarning paydo bo‘lish jarayoni natijasida o‘zlashtirilayotgan makondagi geografik obyektlarga ommaviy tarzda nom berish bilan birga kechadi. Inson faoliyati bilan bog‘liq geografik terminlar majmui esa, asosan, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, shuningdek, o‘zlashtirilayotgan hududning landshaft va iqlim xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan.g‘

Muayyan geografik nomning qanday va nima sababdan paydo bo‘lgani haqidagi tarix xalq xotirasida mustahkamlanib, toponimik rivoyatlar shaklida yoki boshqa janrdagi rivoyatlarda uchraydigan toponimik motivlar ko‘rinishida saqlanib qoladi. Mazkur muammo, ya’ni toponimik nominatsiya, uning o‘ziga xosligi va folklor matnidagi funksiyalarini tahlil etish Qashqadaryo viloyati hududida yashovchi aholi orasida tarqalgan turli janrdagi xalq rivoyatlari matnlari asosida amalga oshirildi. Ular qatoriga tarixiy, toponimik, geneologik, etiologik hamda mifologik rivoyatlar kiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, deyarli har bir rivoyat tarkibida toponimik nominatsiya muhim o‘rin egallaydi.

Bu holat rivoyat janrining o‘ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi. Xususan, rivoyatlarning asosiy janr belgilaridan biri — ularning muayyan joy yoki obyektga bog‘liqligidir. Chunki rivoyatning narrativ (lotincha *narrare* — “hikoya qilish, bayon etish”, ya’ni voqea-hodisalarni izchil va mantiqiy tartibda hikoya qilib berishga asoslangan matn yoki nutq shakli) tizimida voqea sodir bo‘ladigan makon alohida ahamiyat kasb etadi. Odatda rivoyatlarda voqea joyi sifatida aholi maskanlari yoki turli geografik obyektlar xizmat qiladi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, agar ushbu obyektlar mahalliy aholi tomonidan o‘zlashtirilgan bo‘lsa va ularning kundalik hayoti hamda kommunikativ makoniga kirsas (odatda bular aholi yashash manziliga yaqin hududlar bo‘ladi), ular “o‘zlashtirilgan” deb qaraladi. Aksincha, agar geografik obyektlar inson faoliyati doirasiga kirmasa, bunday hududlar “o‘zlashtirilmagan” deb hisoblanadi va ko‘pincha informantlar hikoyalarida xavfli makon sifatida tasvirlanadi.

Shunday qilib, rivoyat matnlari mahalliy qishloqlar, daryolar, tog‘lar, ko‘llar va boshqa geografik obyektlar nomlari bilan nihoyatda boydir. Folklor matnida toponimlar bajaradigan asosiy funksiyalardan biri — nominativ funksiyadir. Ya’ni toponimlar, eng avvalo, voqealar kechadigan aniq geografik obyektни ajratib ko‘rsatadi va unga nom beradi. Bunday ajratish yoki ko‘rsatish natijasida folklor matnida nominativ funksiya bilan chambarchas bog‘liq holda deytik (yunoncha *deixis* — “ko‘rsatish, ishora qilish”, ya’ni tilshunoslikda nutq vaziyatiga bog‘liq

holda ma'no kasb etadigan va shaxs, joy, vaqt yoki ishora orqali aniqlanadigan birliklar) funksiya ham yuzaga chiqadi, ya'ni toponimlar muayyan geografik obyektga ishora qiladi.

Masalan, toponimlar asosida quyidagi rivoyatlarni ko'rish mumkin: Ajinazov — Qamashi tumanidagi balandlik. Bu nomga nisbatan mahalliy aholi o'rtasida diniy tasavvurlar asosida ajina, jin pastqam joyda, chuqurda, odam kam yuradigan yerda bo'lganligi uchun shunday nom kelib chiqqan degan rivoyatlar yuzaga kelgan. Ilmiy haqiqatga ko'ra esa, ajina arabcha jin (mayda, kichik) so'zining ko'pligi bo'lib, ko'lami kichik, yon atrofida chuqur joylari bo'lgan balandlikda joylashgan tik jarlik, kichik zov kabi ma'no kasb etadi. Shuningdek, Qirqqiz (Shahrisabz tumani Zachkana qishlog'i) tepalik joy nomi haqida mahalliy aholi o'rtasida "bu joyda kechqurunlari qirqta qiz chiqib raqsa tusharmish, buni paloncha ko'rganimish" qabilidagi turli rivoyatlar tarqalgan. Bu misollarda keltirilgan toponimlar bir vaqtning o'zida ham obyektни nomlaydi, ham unga ishora qiladi. Demak, birinchi misolda toponimlar mazmunidagi kommunikativ masofani ifodalasa, ikkinchi misolda esa toponimning deytik funksiyasini ko'rsatib beradi.

Ma'lumki, har qanday matnning asosiy vazifasi — ma'lum bir axborotni yetkazishdir. Shu bois folklor matnida toponimlarning informativ funksiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu funksiyaga ega bo'lgan toponimlar vaqt va makon doirasida turli xil etnomadaniy ma'lumotlarni saqlovchi va uzatuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. L. V. Shulunovning ta'kidlashicha, toponimlarning informativ funksiyasi nom berish jarayoniga aloqador turli vaziyatlarni aks ettiradi: bu — obyekt nomi bog'langan shaxsga bo'lgan munosabat, obyektning o'ziga xos xususiyatlari yoki nom berilishiga sabab bo'lgan voqealar bilan bog'liq ma'lumotlardir [5, 155].

Eng muhimi, aynan informativ funksiya folklor toponimlariga tinglovchiga muayyan axborotni yetkazish imkonini beradi. Bu axborot ba'zan ishonchli, ba'zan esa afsonaviy bo'lishi mumkin, biroq u orqali toponimning o'zi, shuningdek, uni yaratgan va undan foydalangan odamlar haqida tasavvur hosil qilish mumkin bo'ladi.

Umuman olganda, har qanday ifoda muayyan darajada informativlikka ega. Biroq rivoyatlarda aynan informativ funksiya yetakchi o'rin tutadi va bu jarayonda toponimlar uni to'liq amalga oshirishga xizmat qiladi. Masalan, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanidagi Bibiqorasoch qishlog'i nomining kelib chiqishiga nazar tashlaylik. Mahalliy aholi o'rtasida nomning shu shakli asosida rivoyatlar paudo bo'lgan. Unga ko'ra, "bibi qorasoch" muqaddas ayol siymosi sifatida tasvirlangan va unga sig'inishgan. T.Nafasovning izohlashicha, nomning tarkibi o'zgargan. U dastlab, qorasoch emas, balki qoratosh shaklida bo'lgan. Qoratosh katta hajmga ega bo'lgan qora tusli tosh. Odamlar, asosan, ayollar

qadimdan bu toshni muqaddas bilishib, unga sig'inib kelishgan. Keyinchalik, nomning shakllanish jarayonida unga bibi (momo) so'zining mahalliy shevadagi shakli) so'zi qo'shilgan. Demak, nom Qorasoch>Qorachosh>Qoratosh shaklida shakllanib borgan. Tosh, suv, daraxt kabi tabiat hodisalariga sig'inish, totemga aylantirish aqidasiga asosan bibi+Qorachosh→Qoratosh→Bibiqoratosh →Bibiqorasoch nomi yuzaga kelgan. Bibi so'zi qo'shilgandan so'ng tosh/chosh soch so'ziga aylangan [2, 62].

Mazkur misol shuni ko'rsatadiki, toponimlar nafaqat joy nomini bildiradi, balki o'sha joy bilan bog'liq tarixiy, ijtimoiy va madaniy ma'lumotlarni ham o'zida mujassam etadi.

Toponimlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ular nominativ funksiya bilan bir qatorda informativ funksiyani ham bajarib, voqea sodir bo'layotgan joyga ishora qiladi, ya'ni hodisani muayyan makonga bog'laydi. Biroq folklor matnida toponimlarning informativ funksiyasi faqat shu bilan cheklanmaydi. Xususan, toponimlarining informativligi ularni yaratgan kishilarning etnik mansubligiga ishora qilishida ham namoyon bo'ladi. Bu esa mazkur hududni qaysi millat vakillari asos solgan, ular qaysi tilda so'zlashgan, qaysi dinga e'tiqod qilgan, qanday urf-odat va marosimlarga amal qilgan va hokazo kabi keng assotsiativ qatlamni yuzaga keltiradi.

Shu nuqtayi nazardan, folklor matnidagi toponimlar etnologik funksiyaga ham ega, deb aytish mumkin. Bu funksiya har bir toponim muayyan ijtimoiy muhitda paydo bo'lishi va o'sha muhit haqida ma'lumot tashishi bilan izohlanadi. Demak, toponimlar nafaqat joy nomini bildiradi, balki ularni yaratgan xalqning moddiy va ma'naviy madaniyati haqida ham axborot beradi.

Masalan, Qarshi tumanidagi Bovurchi qishlog'i nomini izohlanishida ikki xil yondashishni ko'rish mumkin. Birinchi holatga ko'ra, Bovurchi (yoki bakovul) - xonning oziq-ovqati, ovqatlanish, yeyish-ichishini tashkil etish bilan shug'ullanuvchi, dasturxonchi lavozimi. Bu lavozim, dastlab, mug'ul xonligida ta'sis etilgan [1;1,447]. Bovurchi lavozimi va unvoni Buxoro amirligida ham bo'lgan. Xonning shaxsiy oshpazi bovurchi deb atalgan. Keyinchalik, bovurchi kasbga aylanib, qishloqlarda to'y-ma'rakalarni tashkil etuvchi kishiga nisbatan shu nom ishlatila boshlagan. Demak, qishloq nomi bovurchi lavozimida ishlagan yoki shu kasb bilan shug'ullangan kishi yashagan qishloq sifatida shakllangan bo'lishi mumkin. Ikkinchi izohga ko'ra, kishi laqabiga aylangan bovurchi so'zi etnik guruh nomiga o'tgan. T. Nafasovning fikricha, bovor/bovurchi etnonimiga bovoruq kushi nomi asos bo'lgan bo'lishi mumkin: kush nomi — totem — etnonim — qishloq nomi [3, 64].

Bovurchi toponimining kelib chiqishi haqidagi bu ikki talqinda turli tipdagi toponimik nominatsiya mavjudligini ko'rish mumkin. Birinchi holatda — possessiv

(egalik asosidagi), ikkinchisida esa — kvalitiv (belgi-xususiyat asosidagi). Har ikkala holatda ham toponim nafaqat informativ, balki etnologik funksiyani ham bajaradi. Birinchi variant orqali biz qishloq nomiga asos bo‘lgan shaxsning lavozimi yoki kasbi kabi qishloq aholisining moddiy madaniyatiga oid ma’lumotlarni, ikkinchi holatda esa, qishloq aholisining milliy mansubligi, diniy e’tiqodlari kabi ijtimoiy sohaga tegishli ma’lumotlarni bilib olamiz. Shunday qilib, informativ va etnologik funksiyalarning uyg‘unlashuvi toponimning ma’no doirasini yanada kengaytiradi.

Toponimlarning kelib chiqishini tavsiflashda informativ funksiya bilan uzviy bog‘liq yana bir muhim — mnemonik (yunoncha *mnēmē* — “xotira”), ya’ni xotirani vaqt va makon davomida saqlash va uzatish funksiyasi mavjudligini kuzatish mumkin. A. V. Superanskaya ta’biri bilan aytganda, bu — insonlar yoki tarixiy voqealar haqidagi xotirani davom ettirish funksiyasidir [4, 312]. Toponimlar ushbu vazifani toponimik, geneologik, etiologik va ayniqsa tarixiy rivoyatlarda bajaradi.

Chunki voqea haqidagi xotira bo‘lmasa, u og‘zaki tarixda ham aks etmaydi va unga nisbatan munosabat ham shakllanmaydi. Shu jihatdan, folklordagi toponimlar alohida til birliklari sifatida matndan tarixiy, etnografik va etnologik ma’lumotlarni olish imkonini beradi. Albatta, bu ma’lumotlar xalqona talqin — ya’ni xalq germevistikasi (yunoncha *hermēneuein* — “tushuntirish, izohlash, sharhlash”, ya’ni matnlar, ayniqsa murakkab yoki ko‘p qatlamli ma’noga ega matnlarni talqin qilish va tushunish nazariyasi hamda usullari) bilan boyitilgan bo‘ladi. Aynan shu holat folklor toponimlarining umumtil toponimlaridan farq qiluvchi asosiy xususiyatini belgilaydi.

O‘zbek xalqi folklor an’anasida mahalliy aholining yashash tarzi, urf-odatlar, hududni o‘zlashtirilishi, bosqinchilik urushlari kabi tarixiy voqealar bilan bog‘liq ko‘plab rivoyatlar mavjud. Ushbu rivoyatlarning barchasida muayyan joy nomlari — toponimlar faol qo‘llanilib, ular folklor matnini aniq makon va obyekt bilan bog‘laydi hamda tarixiy voqeaning muayyan darajadagi ishonchliligini namoyon etadi.

Masalan, rivoyatlardan birida informant o‘z ajdodlarining boshqa joyga ko‘chirilishi haqida so‘zlab, ularni viloyatning tog‘ qishlog‘idan cho‘l hudududa joylashgan manzilgohlarga kelib qolishi va yangi qishloqlarning bunyod bo‘lishi haqidagi haqiqatlar o‘z ifodasini topgan. Aynan shu toponimlar orqali rivoyat muayyan tarixiy makon bilan bog‘lanadi. Agar ushbu matndan barcha atoqli otlar olib tashlansa, rivoyat o‘zining tarixiy aniqligi va mazmuniy bog‘liqligini katta darajada yo‘qotadi. Demak, toponimlar xalq xotirasini “ushlab turuvchi” tayanch nuqtalar sifatida xizmat qilib, tarixiy rivoyatlarning to‘liq mifologiyalashib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Toponimlarning yana bir muhim funksiyasi — makonga yo‘naltiruvchi (orientatsiya) funksiyadir. Bu xususiyat folklor matnining boshqa tarkibiy unsurlariga

nisbatan ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Inson atrof-muhitni yaxshi bilgan obyektlar orqali idrok etadi; ana shu obyektlar orasidan ajratib ko'rsatilganlari esa alohida nom — proprial nominatsiyaga ega bo'ladi. Muayyan hududga oid toponimlar tizimi (qishloqlar, dalalar, suv manbalari, tepaliklar va vodiylar nomlari) o'ziga xos "koordinatalar tizimi"ni, ya'ni makonda yo'l topish vositasini tashkil etadi.

Masalan, Qarshi tumanidagi To'raqul qishloq nomida ham shunday hodisani ko'rishimiz mumkin. Nomning tarkibi To'ra+qul. To'raqul - kishi ismi. Yangi yerni o'zlashtirib, dehqonchilik qilgan va shu joyda uy-joy qilib, yangi qishloq paydo bo'lishiga asos solgan kishi. Keyinchalik qishloq shu shaxs nomi bilan atala boshlagan. Shu nom bilan bog'liq ikkinchi talqin: o'tmishda to'ra so'zi Buxoro xonligida unvon va amal (mansab) turini anglatgan. Kichik hududni boshqaruvchi kishining lavozimi to'ra, to'ralik atalgan. Qadimda esa xon avlodiga mansub farzand, aslzoda oila farzandi to'ra deyilgan.

Natijada bunday toponimlar nafaqat muayyan joyni nomlaydi, balki o'sha hududni o'zlashtirish tarixi, u yerda yashagan odamlar va ularning faoliyati haqida ham ma'lumot beradi. Shu tariqa, toponimlar folklor matnida bir vaqtning o'zida ham tarixiy xotira vositasi, ham makoniy orientir, ham etnomadaniy axborot tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Toponimlarning yo'naltiruvchi funksiyasi, avvalo, mahalliy aholi uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bu funksiya ko'pincha qishloq jamoalarida yer munosabatlarini tartibga soluvchi yozilmagan qoidalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Bunday tartibga soluvchi vazifa, odatda, possessiv tipdagi toponimlarga xos bo'lib, ular muayyan yer uchastkasidan foydalanish huquqini aniq bir oila yoki urug'ga biriktirib qo'ygan.

## **XULOSA**

Umuman olganda, toponimlarning funksional xususiyatlari nihoyatda rang-barang bo'lib, folklor matni tuzilmasida muhim o'rin egallaydi. Toponimlar ko'p funksiyali bo'lib, odatda bir vaqtning o'zida bir nechta vazifani bajaradi. Ularning bunday funksional ahamiyati o'zbek folklor an'anasida ham, mintaqa tarixida ham toponimik motivlarning naqadar muhim ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, geografik atoqli otlar boshqa leksik birliklarga qaraganda nafaqat obyektning tabiiy-geografik xususiyatlari, balki turli davrlarda yuz bergan tarixiy, ijtimoiy-siyosiy voqealar haqida ham muhim ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi. Aynan shu xususiyat tufayli toponimlar doimo tilshunoslar, etnograflar, arxeologlar va tarixchilar diqqat markazida bo'lib kelgan. Folklorshunoslik uchun

ham toponim alohida ahamiyatga ega, chunki u folklorda muhim etno-tarixiy va etnomadaniy axborotni vaqt va makon davomida saqlash hamda uzatish vositasi hisoblanadi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. Bartol'd V. V. Sochineniya, t. I. M., 1963. -S.447.
2. Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. -Toshkent: O‘qituvchi, 1988. –B. 272.
3. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2009. - 443 b.
4. Суперанская А. В. Ономастика в Бурятии // Вестник Бурятского государственного университета. — 2007. — Вып. 7.
5. Шулунова Л. В. Функциональная характеристика онимов как номинативный х единич языка // Единицы языка и речи. Межвузовский сборник научных трудов. — Улан-Удэ: Изд-во Бурят. гос. ун-та, 2005. — Вып. 4.